



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 20 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	

OLIIY BADIYY-PEDAGOGIK TA'LIMDA AN'ANAVIY USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI VA INNOVATSION KLASTER YONDASHUVI INTEGRATSIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Sultanov Xaytboy Eraliyevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrası professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy san'at va oliy pedagogik ta'lim tizimida tasviriy va amaliy san'atni o'qitishning an'anaviy hamda innovatsion usullarini muvofiqlashtirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Jamlanmada Sharq va G'arb badiiy akademik maktablari, xususan, Renessans davri Yevropa gildiyalari, Usmoniy davri naqqoshxonalar, Temuriylar davri Hirot va Buxoro miniatyura maktablari, shuningdek, zamonaviy Yaponiya, Rossiya va AQSh ta'lim tizimlaridagi "ustoz-shogird" aloqalarining rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Muallif tomonidan tasviriy san'at ta'limida klassik asarlardan nusxa ko'chirish metodikasini raqamli va multimedia texnologiyalari hamda pedagogik klaster yondashuvi bilan boyitish orqali talabalarning individual trayektoriyasini va ijodiy-analitik tafakkurini shakllantirish modellari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ta'lim, ustoz-shogird, klaster yondashuvi, individual ta'lim, nusxa ko'chirish metodikasi, Hirot miniatyura maktabi, akademik rangtasvir, innovatsion pedagogika.

Abstract: This article highlights the theoretical and methodological foundations of synthesizing traditional and innovative methods of teaching visual and applied arts in higher art-pedagogical education. The study analyzes the historical evolution of "master-apprentice" (ustoz-shogird) relationships in Eastern and Western academic art schools, including Renaissance European guilds, Ottoman nakkaşhane workshops, Timurid-era Herat and Bukhara miniature schools, as well as modern educational systems in Japan, Russia, and the USA. The author scientifically substantiates a model for developing students' individual educational trajectories and creative-analytical thinking by enriching the traditional method of copying masterworks through digital multimedia technologies and the pedagogical cluster approach.

Key words: art education, master-apprentice (ustoz-shogird), cluster approach, individualized learning, copying methodology, Herat miniature school, academic painting, innovative pedagogy.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретико-методологические основы гармонизации традиционных и инновационных методов обучения изобразительному и прикладному искусству в системе высшего художественно-педагогического образования. В работе проанализирована история развития отношений "мастер-ученик" (устоз-шогирд) в художественных академических школах Востока и Запада, включая гильдии Европы эпохи Возрождения, османские наккашхане, Гератскую и Бухарскую школы миниатюры эпохи Тимуридов, а также современные образовательные системы Японии, России и США. Автор научно обосновывает модель формирования индивидуальной образовательной траектории и творческо-аналитического мышления студентов путем обогащения традиционной методики копирования классических произведений цифровыми, мультимедийными технологиями и педагогическим кластерным подходом.

Ключевые слова: художественное образование, устоз-шогирд (мастер-ученик), кластерный подход, индивидуальное обучение, методика копирования, Гератская школа миниатюры, академическая живопись, инновационная педагогика.

KIRISH

Chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va dunyoqarash islohotlari sodir bo'layotgan jamiyatning hozirgi bosqichida oliy ta'lim sifatini oshirish va uni jahon standartlariga moslashtirish zamonaviy pedagogikaning eng strategik vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fundamental islohotlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zaruratini taqozo etmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishni va



ularni shiddat bilan o'zgarib borayotgan innovatsion muhitga moslashtirishga qodir bo'lgan, tizimli va tanqidiy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi.

Oliy badiiy-pedagogik ta'lim mazmunini muntazam takomillashtirish bevosita o'quv jarayoniga zamonaviy ilmiy-metodik va texnologik ishlanmalarni joriy etish, nazariya va amaliyotni uzviy integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Tasviriy va amaliy san'at azaldan nafaqat akademik bilimlar to'plami, balki individual mahorat, intuitiv did va qadriyatlarni bevosita uzatish tizimi sifatida amal qilib kelgan. Shu sababli, raqamli va texnologik axborot asrida aynan asarlarni anglash, individual yondashuv va an'anaviy "ustoz-shogird" tajribasini pedagogik klaster modeli bilan uyg'unlashtirish o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuviga asoslangan individual ta'limni tashkil etishning nazariy va amaliy imkoniyatlarini asoslash, an'anaviy ustoz-shogird metodi va zamonaviy pedagogik-texnologik ishlanmalar integratsiyasining didaktik samaradorligini ochib berishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy va pedagogik ta'limda individual yondashuv hamda ustoz-shogird tizimining tarixiy va zamonaviy transformatsiyasi mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan turli rakursda tadqiq etilgan.

G'arb akademik maktablarida rangtasvir va kompozitsiya asoslarini o'rgatishda klassik asarlardan nusxa ko'chirish metodikasining fundamental ahamiyatini J. Elkins (J. Elkins) va L. B. Alberti (L. B. Alberti) kabi tadqiqotchilar asoslab bergan.

Leon Battista Albertining 1435-yilda yozilgan "Rangtasvir haqida"gi klassik traktatida rangtasvirda geometriya, optika va istiqbol (perspektiva) qonuniyatlarining nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, u asarlarni o'rganish va mahorat oshirishda nazariy va praktik bilimlar uyg'unligini birinchi o'ringa qo'ygan.

J. Elkins esa zamonaviy san'at akademiyalarida akademik nusxa ko'chirish tajribasi shunchaki avtomatik mexanik takrorlash emas, balki asarning ichki kompozitsion va texnik tuzilishini "analitik o'qish" ekanini ta'kidlaydi.

Islom san'ati va Sharq badiiy an'alarida ustoz-shogird munosabatlarining ma'naviy va metodologik jihatlari turk tadqiqotchisi B. Kabacham (B. Kabaçam) tomonidan tahlil qilingan. Muallif Usmoniylar davri naqqoshxonalarida tajribasiga tayanib, ustoz va shogird o'rtasidagi aloqa nafaqat texnik xususiyatlarni, balki sabr, axloq va kasbiy estetika kabi fazilatlarni (soft skills) shakllantirishini isbotlagan.

Markaziy Osiyo va O'zbekistonda badiiy ta'lim, xususan, Temuriylar davri Hirot va Buxoro miniatyura maktablarining vorisiylik mexanizmini tadqiq etishda M. Mo'minova, M. Nazarov va N. Akramovalarning ishlari muhim nazariy baza bo'lib xizmat qiladi.

M. Mo'minova Kamoliddin Behzodning Mirak Naqqosh Hiraviy qo'l ostidagi ta'lim davri va uning keyingi shogirdlariga (Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib) saboq berish usullarini chuqur o'rgangan.

O'zbekistonda zamonaviy tasviriy san'atni o'qitishda akademik maktab va milliy an'alar uyg'unligi masalasi, shuningdek, pedagogik klaster modelining nazariy-amaliy asoslari X. S. Sultonov va boshqa mahalliy pedagog-olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kompleks va qiyosiy-pedagogik metodologiyadan foydalanildi:

- 1. Istoriografik va komparativ tahlil:** G'arb (Yevropa, AQSh, Rossiya) va Sharq (Yaponiya, Turkiya, O'zbekiston) badiiy ta'lim tizimlarida ustoz-shogird an'anasining tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy akademik tizimga integratsiyalashuvi qiyosiy tahlil qilindi.
- 2. Didaktik modellash:** Oliy san'at va pedagogika oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at yo'nalishi talabalari uchun an'anaviy va innovatsion metodlar kombinatsiyasiga ega "Pedagogik klaster" modeli ishlab chiqildi.
- 3. Pedagogik kuzatuv va empirik tahlil:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at yo'nalishida talabalarning individual trayektoriyasi, klassik asarlardan nusxa ko'chirish va proyektor/raqamli multimedia vositalaridan foydalanish amaliyoti natijalari baholandi.


TAHLIL VA NATIJALAR

4.1. Badiiy ta'limda ustoz-shogird an'anasining tarixiy-mintaqaviy fenomenologiyasi

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tasviriy va amaliy san'at ta'limi azaldan individual xususiyatga ega bo'lib, ustoz-shogird munosabatlari orqali rivojlanib kelgan. Dunyoning turli mintaqalarida ushbu model o'ziga xos tarixiy trayektoriyaga ega:



- **Yevropa maktabi:** O'rta asrlarda san'at ustalari maxsus sexlar (gildiyalar) doirasida faoliyat yuritgan. Renessans (Uyg'onish) davrida 12–14 yoshli o'quvchilar 5–8 yil muddatga ustaxonalarga qabul qilinib, aynan ustozlari hamda buyuk musavvirlar asarlaridan nusxa ko'chirish (copying) orqali mahorat orttirganlar. Andrea del Verrokko va uning shogirdi Leonardo da Vinchining "Iso Masihning cho'qintirilishi" (1470-yillar) asaridagi hamkorlik, Piter Paul Rubens va Antonis van Deykning o'zaro ijodiy laboratoriyasi buning yorqin misolidir. XVII–XVIII asrlardan boshlab esa akademik markazlashgan ta'lim tizimiga o'tildi.
- **AQSh va Rossiya tajribasi:** AQShda XIX asrgacha davom etgan ustaxona tizimi XX asr o'rtalarida to'liq universitetlar zimmasiga o'tgan bo'lsa, Rossiyada "akademik pedagogik ustaxona" (akademicheskoe nastavnichestvo) saqlanib qoldi. Pavel Fedotov, Ivan Kramskoy va Peredvijniklar uyushmasi tashkiliy tuzilmasi aynan ijodiy jamoa va ustoz-shogird hamkorligining pedagogik klaster shakli edi. Sankt-Peterburg I. Ye. Repin va Moskva V. I. Surikov institutlarida bugungi kungacha professor rahbarlik qiladigan kichik ijodiy ustaxonalar (masterskaya) faoliyati saqlanib kelmoqda.
- **Sharq va Yaponiya tajribasi:** Yaponiyada "ryu" (maktab) va "sensey" (usta) tizimi davlat tomonidan "Tirik milliy xazina" maqomi ostida qo'llab-quvvatlanadi. Mamlakatda rasmiy akademik ta'lim bilan birga an'anaviy norasmiy ustozlik tizimi parallel ravishda yuksak samara berib kelmoqda.
- **Markaziy Osiyo va O'zbekiston an'anasi:** Temuriylar va xonliklar davrida shakllangan naqqoshxona va kitobat ustaxonalari (Hirot, Buxoro, Samarqand) boy metodik tajribaga ega. Kamoliddin Behzodning Mirak Naqqoshdan ta'lim olishi, keyinchalik Behzodning "Bag'dodlik Darvesh" kabi shedevlarni yaratib, G'arb (Jovanni Bellini) realistik san'ati bilan sirdan muloqotga kirishishi va yuzlab shogirdlar (Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib) tayyorlashi noyob milliy tajribadir (1-rasm).



4.2. O'zbekiston zamonaviy rangtasvir maktabida an'ana va akademizm sintezi

XX asr boshlarida va o'rtalarida O'zbekiston tasviriy san'atida Yevropa realistik maktabi va mahalliy milliy kolorit hamda miniatyura sintezi yuz berdi.

Aleksandr Nikolaev (Usto Mo'min) va Aleksandr Volkov Yevropa akademik texnikasini shartli sharqona motivlar, lakonizm va ritm bilan boyitishgan. Chingiz Ahmarov esa Hirot miniatyura maktabining klassik nafosatini V. Serov, V. Favorskiy va M. Matiss kabi G'arb ustalari tajribasi bilan sintez qilib, Alisher Navoiy nomidagi akademik teatrdagi milliy monumental rangtasvir maktabini yaratdi. Mazkur tajriba keyinchalik B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Ikromjonov va Ya. Salpinkidi kabi ustozlar tomonidan davom ettirildi.

4.3. Nusxa ko'chirish metodikasini raqamli va klaster texnologiyalari bilan boyitish

Tarixan Sharq miniatyurasida "damshuy" (nozik detallar, gul barglari uchun) va "miyonshuy" (fon va katta yuzalar uchun) kabi surtma usullari qo'llanib, talabada sabr va mahorat tarbiyalangan. Zamonaviy sharoitda nusxa ko'chirish metodikasi mutlaqo yangi didaktik mazmun kasb etmoqda:

- **Texnologik transformatsiya:** Avvallari nusxa faqat asarning asliga qarab yoki setka/axta vositasida ko'chirilgan bo'lsa, bugungi kunda proyektor vositasida tasvirni bevosita xolstga tushirish yoki yuqori aniqlikdagi (High-Resolution) raqamli fotosuratlardan foydalanish mumkin.
- **Didaktik xavf va yechim:** Yengil raqamli ko'chirish asarning fundamental yaratilish texnologiyasini (gruntlash, bo'yoq qatlamlari, lessirovka, tekstura) to'liq ochmaydi. Shu sababli proyektorda ko'chirish amaliyotini muzeylarga bevosita tashrif buyurish va raqamli tahlil (analitik nusxa ko'chirish) bilan muvofiqlashtirish zarur.



- **Pedagogik klaster modeli:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasida amalga oshirilayotgan “Pedagog – rassom – talaba – maktab o‘quvchisi” zanjiri asosidagi klaster aynan ustoz-shogird an‘anasi-ning zamonaviy institutsional shaklidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy badiiy-pedagogik ta‘lim jarayonida an‘anaviy ustoz-shogird tajribasi va innovatsion pedagogik usullarni muvofiqlashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. **Vorisiylik va klaster:** San‘at ta‘limida faqat nazariy-ma‘ruza usullari bilan yuqori kasbiy mahoratga erishib bo‘lmaydi. Milliy ustoz-shogird an‘anasi talabada shaxsiy va kasbiy sifatlarni (soft & hard skills) shakllantirishning eng maqbul modelidir.
2. **Nusxa ko‘chirishning yangi paradigmasi:** Klassik va miniatyura asarlaridan nusxa ko‘chirish – bu mexanik takrorlash emas, balki asarning ijodiy va texnik tuzilishini analitik anglash usulidir. Raqamli texnologiyalar (multimedia, proyektor, HD-tahlil) ushbu jarayonga yordamchi didaktik vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar:

- Badiiy-pedagogik oliy o‘quv yurtlari dasturlariga “Analitik nusxa ko‘chirish va raqamli rekonstruksiya” amaliy maxsus kurslarini kiritish.
- Ta‘lim jarayonida “Oliy o‘quv yurti – rangtasvir ustaxonalari – muzeylar – maktab” o‘rtasidagi integratsiyani ta‘minlovchi “Pedagogik klaster” tarmog‘ini mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alberti L. B. On Painting (De Pictura). – New York: Penguin Books, 2004. – 112 p.
2. Elkins J. Why Art Cannot Be Taught: A Handbook for Art Students. – Chicago: University of Illinois Press, 2001. – 224 p.
3. Kabaçam B. Traditional Master-Apprentice Relationship in Islamic Arts and Its Pedagogical Value // Journal of Educational and Social Research. – 2020. – Vol. 10, No. 4. – P. 145–154.
4. Mo‘minova M. Temuriylar davri miniatyura san‘atida ustoz va shogird an‘analari // San‘atshunoslik masalalari. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 54–59.
5. Nazarov M., Akramova N. O‘zbekiston tasviriy san‘ati tarixida akademik rangtasvir va milliy an‘analar integratsiyasi // Pedagogik ta‘lim. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 88–94.
6. Sultanov H. E. Tasviriy san‘atni o‘qitishda pedagogik klaster yondashuvi: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 180 b.
7. Tosh J. The Pursuit of History: Aims, Methods and New Directions in the Study of History. – 6th edition. – London: Routledge, 2015. – 368 p.
8. Savitskiy A. K. Letters and Pedagogical Heritage / Ed. by V. M. Volodarsky. – Moscow: Art, 1985. – 240 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.